

Ismanova Ma'mura Abdumo'minovna
CHDPU "Maktabgacha va boshlangich
nazariyasi va amaliyoti" kafedrası katta o'qituvchisi

TALABALARDA KASBIY-KREATIVLIK KO'NIKMALARINI **SHAKLLANTIRISHNING FUNKSIONAL MODELİ**

Ismanova Ma'mura Abdumo'minovna
Senior Lecturer, Department of "Preschool and
Primary Education Theory and Practice," CHDPU

Functional Model for Developing Students' Professional and Creative Skills **Annotatsiya**

Ushbu maqolada talabalarda kasbiy-kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Muallif pedagogik jarayonda kreativ yondashuvning ahamiyatini ochib bergan holda, talabalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, kasbiy malaka va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan modelni taklif etadi. Modelning asosiy komponentlari — motivatsion, mazmunli, amaliyotga yo'naltirilgan va refleksiv-baholovchi qismlardan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq holda talabalarning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

АННАТАЦИЯ

В данной статье теоретически и практически освещена функциональная модель формирования профессионально-креативных навыков у студентов. Автор, раскрывая значение креативного подхода в педагогическом процессе, предлагает модель, направленную на развитие у студентов творческих способностей, самостоятельного мышления, профессиональных умений и инновационной деятельности. Основные компоненты модели — мотивационный, содержательный, практико-ориентированный и рефлексивно-оценочный блоки, которые во взаимосвязи способствуют повышению профессиональной подготовки и творческого потенциала студентов.

ANNOTATION

This article theoretically and practically highlights the functional model of developing professional and creative skills in students. The author, by revealing the significance of a creative approach in the pedagogical process, proposes a model aimed at fostering students' creativity, independent thinking, professional competence, and innovative activity. The main components of the model — motivational, content-based, practice-oriented, and reflective-evaluative parts — are interrelated and contribute to enhancing students' professional training and creative potential.

Kalit soʻzlar: kreativ, progress, model, nisbiy avtonomiya, evolyusion, subyekt-subyekt, kashfiyot, ijod, tashkiliy-pedagogik, xavfsiz.

Oliy taʼlimda zamonaviy yondashuvlar talabalarni kreativ fikrlashiga turtki beradi. Taʼlimiy vaziyatlarda muammolarni hal etish nafaqat mantiqiy balki, analogik fikrlash, boshqa vaziyatlarni oqilona va har tomonlama hal etishni taʼminlaydi. Natijada talabalarda kasbiy mahorat rivojlanadi. Muammolarni samarali hal etish uchun bilimlarni integratsiyalash bilan birga turli nuqtai nazarlarni qoʻllash, gʻoyalarni umumlashtirish lozim. Kreativlik inson faoliyatining eng muhim va keng tarqalgan turlaridan biridir, buni foydali va samarali evolyusion oʻzgarish deyish mumkin. Ijodiy fikrlash talaba oʻzlashtirishining samaradorligini bashorat qiluvchi omil sanaladi.

...Dragerning fikricha, "kreativlik innovatsiyaning dastlabki bosqichi, kashfiyot va ixtirochilik qobiliyatidir. Har qanday hayotiy jabhalarda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davrida kreativlik progress va transformatsiya (individdning ongi yoki tajribasi) hodisasi yuz beradi. Boshqa tomondan, ijodkorlik innovatsiya, ixtiro va kashfiyotning asosi" [Error: Reference source not found].

Insoniyat va sivilizatsiya tarixi davomida hayot sohalarida yuz bergan ijodkorlik oʻzgarish va taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri deb tan olingan. Oʻquv–tarbiya jarayoni bosqichlarini rejalashtirish va variativ dars loyihalari asosida tashkil etish kreativ-koʻnikmani shakllanishiga xizmat qiladi. Chunki talabalar har bir bosqichni amalga oshirishda ijodiy fikrlash va yechimlarni shaxsiy mulohazalarga tayangan holda bayon etishga harakat qiladi.

Xorij olimi Fred Xoylning taʼkidlashicha "bugun ijodiy gʻoyalarni eʼtiborsiz qoldiradigan millatning ertaga yuzi loyga qorishadi" [Error: Reference source not found; 301 b.]. Darhaqiqat davlat va mamlakat taraqqiyotida pedagogik faoliyatini samarali tashkil eta oladigan malakali kadrlarning oʻrni beqiyos.

Maʼlumki, anʼanaviy taʼlimda kreativ muhitni yaratishga imkon boʻlmaydi. Ushbu boʻshliqni toʻldirish uchun ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv topshiriqlari, didaktik qoʻrgazma va variativ dasturlar ishlab

chiqish zarur. Talabalarda ijodiy fikrlash strategiyalarini shakllantirish hamda kreativ yondashuvni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

B. Baylin kuzatuvlariga ko'ra, "ijodiy jarayonda muayyan qoidalarga doimo amal qilinadi" [Error: Reference source not found]. Ijodkorlik nafaqat ko'nikmalarga ega bo'lishni anglatadi balki noan'anaviy fikrlash, shuningdek, umum qabul qilingan qoidalarini bilishni taqazo etadi, chunki ulardan chekinish uchun ularni hech bo'lmaganda bilish kerak. Har bir talaba shaxsi uchun ijodkorlikning yuqori qiymati va ahamiyati yuqori o'rin egallaydi.

Talabalar nafaqat qaror qabul qilish imkoniyatini beradigan individual potensial balki muammolar va yangi vaziyatlarda harakat qilish, atrof-muhitni faol o'gartirish, o'z hayoti, kelajagini o'zgartirishga intilishi zarur. Kreativlik hayotning barcha sohalarida, xususan, bugungi yoshlarning shaxsiy va jamiyat manfaatlarini ko'zlashida alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ-kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda professor-o'qituvchining amaliy faoliyati yoki o'quv sharoitida ijodkorlikni rivojlantirish g'oyasini amalga oshirish muhim. Talabada kreativlikni shakllantirishda tizimli ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ularni divergent fikrlashga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirish, ichki imkoniyatlari va turli xil ijodiy usullar orqali maqsadga erishish mumkin.

Kreativlikni shakllantirishga qaratilgan ta'limda pedagogik vaziyatlar, shaxsning individual imkoniyatini tan olish yetakchi tamoyil bo'lishi kerak. Kasbiy ko'nikma va ijodini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon ta'lim tizimining ochiqligi, moslashuvchanligi, professor-o'qituvchilar va talabalarning umumiy ijodiy munosabati hamda hatti-harakatlarini o'qitish va o'qitishga yanada ochiq yondashuvni ta'minlashi lozim.

K.K.Urban, X.G.Julien tomonidan divergent fikrlashga qaratilgan o'yinlardan foydalanish va o'quv topshiriqlari bilan bog'liq vazifalarni qo'llash, shu jumladan ular o'rtasidagi munosabatni diqqat bilan kuzatish va baholash kerakligi tavsiya etilgan [Error: Reference source not found]. Talabalar o'rtasidagi ijodiy xatti-harakatlar va tahliliy yondashuvlar bolalar ta'lim-tarbiyasi uchun mazmunli natijalarga olib keladigan umumiy muammolarni hal qilishni ta'minlaydi. Ta'limiy

faoliyatni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan barcha qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirishda yetarli imkoniyat yaratish zarur. Kreativlikni xususiyati shundaki, ushbu jarayon talabalarning umumiy say-harakatlarni birlashtirishga chaqiradi va uni kundalik amaliyotda amalga oshiriladigan ta'lim maqsadiga aylantirish kerakligini ifodalaydi. Ijodkorlik immanent (biiror hodisaning ichki xususiyatlariga xos, ichki tabiatidan kelib chiqadi) shaxsiy xususiyat bo'lib, o'quv jarayonida ma'lum sharoitlarda rivojlanishi mumkin. Biroq, tadqiqot davrida talabalarda kreativlikni rivojlantirishda yutuqlarga erishishda ikki muhim sabab mavjudligi aniqlandi, birinchidan, ularga ta'lim, tajriba va odatlarning hozirgi xatti-harakatlariga ta'siri. Ikkinchidan, ijodiy harakatlar tashqi obyektiv to'siqlarini bartaraf qiladi. DTS asosida tayyorlangan o'quv dasturlari, noa'naviy dars mashg'ulotlari, kreativ yondashuvlar talabaga ijodiy harakatlarning ichki va tashqi to'siqlarini yengishga yordam beradi, yangi assotsiatsiyalarni amalga oshiradi.

Kreativlikni rivojlantirishning 1960-70 yillarda paydo bo'lgan ikkinchi avlod vakillari Robert Eberli, Djordj Eksteyn, Robert Adler muammolarni hal qilishda tasavvur jarayonlarining ahamiyatini ochib bergan [Error: Reference source not found]. Mantiqiy ijodiy muammolarni hal qilish mazmunida intuitiv tasavvur jarayonlaridan foydalanish turadi. Talabalar maktabgacha ta'lim amaliyotida bolalar ta'lim-tarbiyasini oldindan prognozlash va tasavvur qilishi imkoniga ega bo'ladi. Ular pedagogik muammo yechimlarini uchun asosiy manbaani tengdoshlari, atrof-muhit, hayotiy tajriba va amaliyotdan oladi. Biroq ta'limiy vaziyatlar va yechimlarning sifati, talaba o'zlashtirgan ma'lumotlarga bog'liq. Kreativlikni shakllanishida o'zaro tajriba almashish va do'stona munosabatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, qulay pedagogik sharoitlar ustuvor bo'lsa, shaxsiy g'oyalarning o'ziga xosligi shunchalik ahamiyatli bo'ladi.

Talabalarda kreativlikni shakllantirishda quyidagi pedagogik-shartlarga amal qilindi:

Kreativlik nafaqat talabaga xos sifat, balki o'qituvchi shaxsiyatining ajralmas xususiyati sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun talabalarda kasbiy-kreativlikning shakllanishida professor-o'qituvchilar talabalarga motivatsiya

berishi lozim. Ma'lumki ichki va tashqi motivlar shaxs faoliyati yo'nalishini belgilaydi. Pedagogik faoliyatda aniq maqsad aniqlanib olinmasa, motivatsiya past bo'ladi muvaffaqiyatga erishishda muammolar yuz beradi. Talabalarda kreativlik shaxslararo o'zaro ta'sir va ijodkorlikni bilvosita qo'llab-quvvatlash orqali shakllanadi. Kasbiy-kreativlikni turli yo'llar bilan modellash tirish mumkin. Aksariyat talabalar o'qituvchiga taqlid qiladi, shuning uchun turlicha qarashlar, muammolarni innovatsion tarzda hal qilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Innovasion ta'lim texnologiyalari va kasbiy kompetentlik. O'quv-uslubiy majmua. TDPU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi, 2016. 39 b.
2. Nosirova R. Metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klatser asosida bolalarni maktabga tayyorlash metodikasini takomillashtirish: p.f.f.d.(PhD)... diss.- T.: 2022. - 230 b.30.
3. Ruziyeva D.I. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuygusini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. d-ri ... Avtoref. Toshkent, 2007. 36 b.
4. Sharipov SH.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Pedagog. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – T.: 2012. – 46 b.\
5. Nurmanov A.T Podgotovka studentov k texnologii i texnike effektivnogo obsheniya- T.: Fan va texnologiya, 2010.